
Hech bir murojaat e'tibordan chetda qolmaydi

19 iyul kuni Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan fuqarolarning dardu-tashvishlarini aniqlash hamda uning ijobiy yechimini topish, Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonlaridan aholini rozi qilish bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida ommaviy sayyor qabul o'tkazilgan edi.

Qabul davomida "To'qimachilar" MFY Chexova ko'chasi 13/17-uyda yashovchi fuqaro S.Poshshoxodjayeva, "A.Qodiriy" MFY A.Qodiriy ko'chasi 88/2-uyda yashovchi fuqaro R.Mamajonova, "Mustaqillik" MFY, Yangi hayot ko'chasi 118-uyda yashovchi fuqaro Z.Usmonova hamda "A.Jomiy" MFY Ozodlik ko'chasi 13-uyda yashovchi fuqaro M.Shodmonovalarning tikuv mashinasi bilan ta'minlash masalasidagi murojaatlari bir kun muddat ichida ijobiy hal qilindi. Ularga tikuv mashinalari yetkazib berildi.

Fuqarolar murojaatlarining ijobiy hal etilgani, endilikda tikuvchilik sohasi orqali doimiy daromadga ega bo'lishlarig amaliy yordam ko'rsatilganligi uchun Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2022-07-21 14:40:11